


Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar

(Qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)


2021- yil yanvar-sentabr oylarida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 347,7 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **12,2 %** ga o'sishi ta'minlandi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlar soni, mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar hamda o'rtacha oylik ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarishi, foizda

(2021- yil yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlari, ming so'm
(2021- yil yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlar soni, mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlar hamda o'rtacha oylik ish haqining o'zgarishi

(2021- yil yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

| | <i>Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik</i> | <i>Xodimlar soni, kishi</i> | <i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i> |
|--|--|---------------------------------|---|
| Viloyat bo'yicha - jami | 3254 | 98455 | 2347,7 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| Sanoat | 35 | 12311 | 2428,6 |
| Qurilish | 4 | 200 | 2535,3 |
| Savdo | 10 | 1036 | 2855,1 |
| Tashish va saqlash | 7 | 1132 | 1792,0 |
| Axborot va aloqa | 18 | 496 | 3538,3 |
| Bank, sug'urta va vositachilik | 20 | 2004 | 6212,2 |
| Ta'lim | 1327 | 47003 | 2152,4 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 84 | 19319 | 1901,3 |
| Boshqa faoliyat turlari | 1565 | 14954 | 2688,1 |

Ish haqi. 2021- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda.

Sanoat sohasida **35** ta korxonada **12 311** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **12,5 %**) xodim ishlagan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2428,6** ming so'mni tashkil etib, 2020 - yilning mos davriga nisbatan **106,9 %** ga o'sdi.






Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda



Sanoat sohasi bo'yicha bir qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi. Viloyatning o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Zafarobod -**215,0** %, Paxtakor - **135,4** %, Zarbdor -**109,9** %, Forish -**104,5** % tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, viloyatning ba'zi tumanlarida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Jizzax shahri - **99,0** %, Zomin - **92,6** %, Sh.Rashidov -**86,5** %, G'allaorol – **86,3** %, tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:





Qurilish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

Qurilish sohasida **4** ta korxonada **200** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **0,2 %**) xodim ishlagan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2535,3** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **99,1 %** ga o'sdi.




Qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini ko'radigan bo'lsak, eng yuqori ko'rsatkich Mirzacho'l tumanida, **-108,5 %** viloyat darajasidan yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari qurilish sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi.

Qurilish sohasida viloyat ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Jizzax shahri **-99,2 %**, va Zafarobod **-53,6 %** tumanlarida kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:





Savdo sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2021- yil yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)



Savdo sohasida **10** ta korxonada **1036** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **1,0 %**) xodim ishlagan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 855,1** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **12,1 %** ga o'sdi.



Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahri **-100,3 %** ga to'g'ri keldi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatning ba'zi tumanlarida viloyat o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Baxmal **-98,1 %**, Mirzacho'l – **96,3 %** hamda Do'stlik **-45,5 %** tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari.)

Ta'lim sohasida **1 327** ta muassasada **47 003** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **47,7 %**) xodim ishlagan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 152,4** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **14,1 %** ga o'sdi .

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Ta'lim sohasi bo'yicha qator shahar va tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Jizzax shahri – **129,2 %**, Baxmal **-108,3 %**, Zomin – **103,2 %**, Arnasoy **-101,1 %** tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining ba'zi tumanlarda viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Do'stlik **-96,1%**, Yangiobod **-95,0 %** va Sh.Rashidov **-95,0 %**, Zarbdor **-94,8 %** tumanlari hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:






Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasi boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2021- yil yanvar-sentabr; qishloq xoʻjaligi va *kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari*)

Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasida **84** ta muassasada **19 319** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **19,6 %**) xodim ishlagan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1901,3** ming soʻmni tashkil etib, 2020 - yilning mos davriga nisbatan **3,7 %** ga oʻsdi.

Oʻrtacha oylik ish haqi, ming soʻmda:




Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasi boʻyicha oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori koʻrsatkichlari Mirzacho'l - **111,8 %**, Jizzax shahri - **111,1 %**, Do'stlik - **109,5 %**, Arnasoy- **107,3 %** tumanlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Ushbu sohadagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi baʼzi tumanlarda viloyatning oʻrtacha oylik ish haqi koʻrsatkichidan past boʻldi.

Viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past koʻrsatkichlar Baxmal – **97,6 %**, Gʻallaorol **93,9 %**, Sh.Rashidov **-89,2 %** va Forish **-86,5 %** tumanlarida kuzatildi.

Oʻrtacha oylik ish haqi, ming soʻmda:





Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Bank, sug'urta va vositachilik faoliyati bo'yicha **20** ta muassasada **2 004** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi **2,0 %**) xodim ishlagan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **6212,2** ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **6,3 %** ga o'sdi.




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida - **101,1 %** ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi ba'zi tumanlarida viloyatning o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Yangiobod - **86,5 %**, Do'stlik - **47,8 %**, tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda:




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari, %.

(2021- yil yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)


2021 -yil yanvar -sentabr oylarida 2020 -yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati qurilish sohasida **99,1 %**, axborot va aloqa sohasida **28,6 %**, tashish va saqlash sohasida **16,3 %**, ta'lim sohasida **14,1 %**, savdo sohasida **12,1 %** kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021 - yil yanvar-sentabr oylarida eng yuqori bo'lgan ish haqqi, ming so'mda



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini shahar va tumanlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida **3 029,3** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **129,0 %**) ni tashkil etgan bo'lsa, Zafarobod tumanida **2 291,9** ming so'mni (**97,6 %**), Baxmal tumanida **2 209,0** ming so'mni (**94,1 %**), Zomin tumanida **2164,9** ming so'mni (**92,2 %**), Zarbdor tumanida **2 069,9** ming so'mni (**88,2 %**) tashkil etib, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqi miqdorining viloyatdagi o'rtacha ish haqiga nisbatan o'sishi (foizda)





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzida hisoblangan daromadlari

(2021- yil yanvar-sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

| | 2020- yil yanvar-sentabr | 2021- yil yanvar-sentabr | O'sish sur'ati, %. |
|--------------------------|-----------------------------|-----------------------------|--------------------|
| Jizzax viloyatida | 2093,1 | 2347,7 | 112,2 |
| Jizzax shahri | 2655,9 | 3029,3 | 114,1 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Arnasoy | 1831,2 | 1956,1 | 106,8 |
| Baxmal | 1954,0 | 2209,0 | 113,0 |
| G'allaorol | 1677,9 | 1714,8 | 102,2 |
| Sharof Rashidov | 1748,9 | 1949,8 | 111,5 |
| Do'stlik | 1967,6 | 2072,4 | 105,3 |
| Zomin | 1942,2 | 2164,9 | 111,5 |
| Zarbdor | 1803,3 | 2069,9 | 114,8 |
| Zafarobod | 1634,1 | 2291,9 | 140,3 |
| Mirzacho'l | 1819,4 | 2017,1 | 110,9 |
| Paxtakor | 2028,7 | 2067,1 | 101,9 |
| Forish | 1634,1 | 1912,6 | 117,0 |
| Yangiobod | 1726,5 | 1980,0 | 114,7 |



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ma'lumot uchun: “O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi” ko‘rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2020- yildagi «O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi joriy yilning 17 avgustdagi PQ-6279-sonli Qaroriga muvofiq, joriy yilning 1 sentabridan boshlab mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori 822 000 so‘mni tashkil etadi.

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi
bo‘limi.**

Тел:72-221-51-19